



GADOIY IJODIDA TAZOD, TANOSUB VA TALMEH SAN'ATLARI

Sharibjonova Xurshidaxon Anvarjon qizi

Namangan davlat universiteti Filologiya fakulteti Adabiyotshunoslik

(O'zbek adabiyoti) kafedrası 2- kurs magistranti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7923724>

ARTICLE INFO

Received: 03rd May 2023

Accepted: 10th May 2023

Online: 11th May 2023

KEY WORDS

Gadoiy, gazal, tazod, talmeh, misra, bayt, band, oshiq, ma'shuqa she'riy san'at, vafo, jafo, do'st, yolg'on, chin.

ABSTRACT

Gadoiy o'zbek g'azalchiligiga ulkan hissa qo'shgan shoirlardan sanaladi. Shoir ijodida ma'naviy va lafziy san'atlardan mohirona foydalangan. Gadoiy g'azallarida tazod va talmeh san'atlarining yorqin namunalarini uchratamiz.

Gadoiy o'zbek g'azalchiligiga ulkan hissa qo'shgan shoirlardan sanaladi. Shoir ijodida ma'naviy va lafziy san'atlardan mohirona foydalangan. Gadoiy g'azallarida tazod va talmeh san'atlarining yorqin namunalarini uchratamiz.

Ming yillik tarixga ega bo'lgan mumtoz adabiyotimizda badiiyat masalasi hamisha she'r ahlining diqqat markazida bo'lib kelgan. U yoki bu ijodkor haqida so'z borganda uning nimalarni tasvirlagani emas asosan qanday tasvirlaganiga e'tibor qaratilgan. Jumladan, adabiy asarlarda she'riy san'atlardan foydalanish mahorati hamma asrlarda badiiy san'atkorlikning asosiy qirralaridan biri sifatida baholangan.

Ma'lumki she'riy san'atlar badiiy asarda ifodalangan g'oyalarning hayotiyroq, ta'sirchanroq ifodalanishiga, lirik va epik timsollarning yorqinroq gavdalantirilishiga, misralar, baytlar, bandlarning lafziy nazokati, musiqiyiligi, jozibadorligini ta'minlashga xizmat qilgan.[2.4 b]

Gadoiy Sharq she'riyatining tazod, talmeh, tashbeh tanosib, itfoq, husni ta'lil, irsolul masal, laf va nashr, tarse, tardi aks, ihom, tajnis mubolag'akbi ko'plab san'atlardan mohirona foydalangan.

"Tazod" so'zi "zid qo'yish" qarshilantirish ma'nolarini ifodalaydi. Shu so'z bilan ataluvchi she'riy san'at esa baytda ma'no jihatidan o'zaro zid, qarama – qarshi bo'lgan so'zlarni qo'llab ta'sirchan badiiy timsollar, lavhalar yaratishni nazarda tutadi.

Gadoiy ijodida ham tazod va talmeh san'atlarining yorqin namunalarini ko'plab uchratishimiz mumkin.

Jumladan:

Umr sen ore balekim, umrdin kelmas vafo,

Xush ko'rinmaydur dag'i bir yo'li anvoi jafo.[1.15b]



Ushbu baytda vafo va jafo soʻzlari orqali shoir tazod sanʼatini shakllantirgan. Yaʼni misralarda shoir maʼshuqaga qarata shubhasiz mening umrim sensan, lekin bu umrdan menga sira ham vafo kelmadi, aksincha yana turli xil jafolar qilmoqdasan deya oʻz holatini bayon etgan. Ikkinchi misradagi anvoi soʻzi “turli xil” degan maʼnoni anglatadi.

Mumtoz adabiyotdan maʼlumki barcha gʻazalnavislar ilmi badeʼ (sheʼriy sanʼat) dan nozik did, nafasat bilan foydalanishgan. Ushbu ilmi badeʼ da tazod sanʼati ham eng keng tarqalgan turlaridan biri hisoblanadi. Gadoiy ham aynan tazod sanʼatidan unumli foydalangan. Quyidagi misrada ham tazod sanʼatining goʻzal namunasiga guvoh boʻlamiz. Shoir ayriliqda qolganini shunday ifodalagan: Ey voh, dushmanimning hojati ravon boʻldi. Bu jafo qiluvchi falak meni yana doʻstimdan ayirdi deya doʻst va dushman soʻzlari orqali tazod sanʼatini shakllantirgan. Birinchi misradagi charx soʻzi 1. “osmon”, “falak” ; 2. “taqdir”, “toleʼ ” 3. “aylanish ” degan maʼnolarni anglatadi. Jafo gustar “jafo qiluvchi” degan maʼnoni anglatadi.

Doʻsttin oyirdi bu charxi jafo gustar yana,
Ey darigʻo hojati dushman ravo boʻldi yana.[1.15]

Quyidagi baytda Gadoiy Alloh visoliga yetish (husnini koʻrish) butun orzu –xayoliligini misrada aks ettirgan, shuning uchun hajr oʻti ushbu orzuga jazoligini keyingi misrada keltirgan. Misradagi visol soʻzi “yetishmoq” degan maʼnoni anglatadi. Misralardagi hajr va visol soʻzlari tazod sanʼatini shakllantirgan.

Sulton visolidur chu xayoling sening mudom,
Hajr oʻti har ne qilsa sazodur Gado, sango[1.19b]
* * *

Chun azaldin gʻussau gʻamdur nasibing ey koʻngul,
Ne ishing bordur jahonda shodiyu lazzat bila[1.20b]

Yuqoridagi baytda shoir koʻngilga qarata ey koʻngil, bu jahonda shodlik- u lazzat bilan nima ishing bor sening azaldan nasibing gʻam-gʻussadir. Yaʼni bu yerda shoir ishq yoʻlida jahonning shodligu –lazzatidan voz kechib, gʻam gʻussaga botganligiga ishora qilmoqda. Birinchi va ikkinchi misralarda tazod sanʼatini gʻussau gʻam – shodiyu lazzat soʻzlari orqali tazod sanʼatini shakllantirgan.

Xoh oʻltur xoh tirguz ixtiyor ilgingdadur,
Ul sening nozu itobinggʻa mening jonim fido [1.24b]

Shoir bu baytida mashuqaga murojaat qilib, oʻldirish va tiriltirish ixtiyori sening qoʻlingda, sening nozing va gʻazabingga mening jonim fido boʻlsin . Shoir ikki baytda ham tazod sanʼatidan unumli foydalangan. Birinchi misrada oʻltur(oʻldir) va tirguz (tiriltir) soʻzlari orqali ikkinchi misrada esa noz va qahr soʻzlari orqali tazod sanʼatidan mohirona qoʻllagan

Vaslinga yetgay bu jon,yo zor oʻlturgay firoq,
Vodiyi ishqinggʻa tushtum har ne boʻlsa yo nasib.[1.27b]



Yuqoridagi baytda shoir ishqing vodiysiga tushdim har ne nasib bo'lsa ham, bu jon yo vaslingga yetadi, yo firoq(ayriliq) zor o'ldiradi. Vasl bilan firoq so'zlari tazod sana'tini hosil qilgan.

Vafo xud yo'q, vale javru jafog'a,

Base mardonasen, bori nechukdir.[1.35b]

vafo- jafoda so'zlari tazod san'atini yuzaga keltirgan. Yorga qarata javru-jafoda mardonasan, lekin nechunkim birgina vafo yo'q demoqda.

Gar muyassar bo'lmasa guldek yuzung nazzorasi,

Gulshani firdavs valloh kulbai ahzon erur[1.43b]

Ushbu baytda shoir ma'shuqaning go'zalligini tazod san'ati orqali ochib bergan; agar guldek yuzingga nazar solmoqqa muyassar bo'lmasam firdavs jannatidagi gul bog' ham menga kulbadagi hazondek. Misrada shoir firdavs bog'ini kulbaga , gulgog'ni esa hazonga zidlantirmoqda.

Bo'stonki latofatga parixona ko'rinur,

Sensiz manga bir manzili vayrona ko'rinur[1.47b]

Yuqoridagi baytda bo'ston va vayrona so'zlari orqali tazod san'atinin go'zal namunasini ko'rishimiz mumkin.

Quyidagi misralarda oshiq mashuqaga qarata shunday deydi : sendan ayrilmaslik uchun, dunyo shodliklaridan voz kechdim chunki, sensiz menga jannat bog'i ham jahannam kabi ko'rinadi. Gadoiy bu baytida ilohiy ishqni madh etgan, ya'ni tasavvuf ilmida Alloh jamolini ko'rish eng buyuk mukofot hisoblanganligi sababli, shoir Allohga qarata seni yuzingni ko'rmaslik men uchun jannat bog'i jahannamga teng deya Allohga bo'lgan muhabbatini aks ettirgan. Bu baytda bog'i rizvon va jahannam so'zlari tazodni hosil qilgan.

Sendin ayru tarki ayshu ishrat ettimkim, manga,

Bog'i rizvon sensizin, valloh jahannam ko'rnadur.[1.55b]

Keyingi baytda ham shoir ilohiy ishq orqali Allohni madh etgan. Ey pari meni jannatdagi hurlardan qizg'onma chunki mening ko'nglim sensiz jannatdagi hurlarning suhbatini rostligini ham yolg'onligini ham xohlamas. Baytdagi ikkinchi misrada tazodni hosil qiluvchi so'zlar chin va yolg'on

Bog'i rizvon ichra ko'nglum sensiz ey rashki pari,

Hurlarning suhbatin ne chin, ne yolg'on istamas.[1.63b]

Quyidagi misralarda oshiq yorsiz yashashni jonning baloga giriftor bo'lishi deya ta'riflab, keyingi misrada ishq dardiga chalinganlikni shunday ta'sirli ifodalaganki, bu dard oldida yuz o'lim ham hayron ekanligini tazod san'ati orqali ifodalagan.

Ey begim, sensiz tiriklik bir baloyi jon emish,

Kim aning dardi qoshinda yuz o'lum hayron emish[1.66b]

* * *

Koshki hargiz muyassar bo'lmag'ay erdi visol,

Oqibat yuz dardi hasrat birla chun hijron emish[1.66b]



Quyidagi misralarda ayriliq dardini ta'riflar ekan, ayriliqdan og'irroq g'am yo'qdir deya visolidan umidini ifodalamoqda. Misralardagi firoq(ayriliq), visol(yetishish) so'zlari tazod san'atini shakllantirgan.

Firoq og'usidin bori ne g'amdur.

Visolingdin agar topilsa taryoq[1.73b]

* * *

Bir kun, azizim, vasl ila tutqil ilikkim bir yo'li

Hijron ayoqi ostida tuproqtek xor o'lmisham [1.93b]

Yuqoridagi baytda oshiq yorga murojjaat qilib, bir kun mening qo'limdan visol bilan tutgin,hijron oyog'I ostida tuproqdek xor o'lmoqdaman demoqda.

Yordin xohi vafo , xohi jafo har nav etib,

Yor agar yor o'lsa hargiz yuz evurmas yoridin.[1.115b]

Yuqoridagi misrada yordan xoh vafo kelsin,xoh jafo kelsin, yor agar chin yor bo'lsa,yoridan yuz o'girmaydi demoqda. Vafo va jafo so'zlari tazod san'atini ifodalagan.

Hajr tuni necha uzun bo'lsa,

Bo'lg'usi bordur oxiri sahari.[1.140b]

Shoir bu baytda hajr tuni qanchalik uzun bo'lmasin, uning oxiri ttongdir demoqda.

Talmeh

Talmeh (nazar solmoq)she'r yoki nasrda mashhur tarixiy voqealar afsonalar, adabiy asarlar yoki maqollarga ishora qilmoq san'atidir. Shoirlar muhabbat mavzusidagi asarlarida ko'pincha Sharqda keng tarqalgan "Farhod va Shirin ", "Layli va Majnun", "Vomiq va Uzro", "Tohir va Zuhra " kabi qissalar dostonlarning qahramonlari nomiga ishora qiladilar. O'quvchi u yoki bu nomga ishorani ko'rar ekan uning ko'z oldida o'sha qissa, doston, afsona mazmuni uning qahramonlari hayoti, sevgisi, kurashi, fojeali taqdiri jonlanib shoir demoqchi bo'lgan g'oyani, fikrni, tuyg'uni yorqinroq tasavvur qiladi, chuqurroq anglab yetadi. Zero, bu jarayonda o'quvchi o'zi mutolaa qilayotgan asar qahramoni hayoti, tuyg'ulari ma'naviy qiyofasini o'sha mashhur qissa afsona qahramoni bilan qiyoslaydi: Masalan Gadoiyning

Ishqidin hosid meni gar man etar ma'zur erur,

Ori bilmaslar chu Majnun dardi holi sog'lar[1.45b]

baytidagi Majnunga ishorani ko'rar ekan darhol ko'z oldiga mashhur "Layli va Majnun " dostoni undagi majnun qiyofasini keltiradi. Ma'lumki, Majnun dunyoda ishqdan shu darajaga yetadiki, telba junun holatiga yetib boradi. O'quvchi Gadoiy tasvirlagan oshiqni Majnun bilan qiyoslaydi, uning ishqini Majnunning ishq bilan tenglashtiradi.

Har kim bu eshikda meningtek gado bo'lur,

Taxti Qubodu mulki Skandar havas qilur.[1.57b]

Har kim bu ishqning eshigida men kabi gado bo'lur, Qubod o'z taxtida Iskandar o'z mulkida havas qiladi.

Keyingi misrada ham Qubod va Iskandar orqali talmeh san'atining namunalarini keltirgan. Ya'ni, yor eshigingda itlaringning mansabini oldim, Qubod taxti-yu,Iskandar toji nima qiloladi.

Chun eshikda itlaringning mansabin topti Gado,

Naylasun taxti Qubodu afsari Iskandariy.[1.136b]



Qubod- sosoniylar sulolasiga mansub podshoh

Qamar davrinda Misri husn ichinda ,

Azizim Yusufi Kan'ondin ortiq[1. 72b]

Bayt tahliliga yuzlanadigan bo'lsak, oshiq yorni shu darajada ta'riflaydiki: yor hilol o'ning oldida misr go'zallarining husni oldida, azizim sen Yusufi Kan'ondan ham ortiqdirsan deydi. Baytda shoir tarixiy obraz Yusuf Kan'ondan foydalanadi.

Yusufi Kan'on mashhur "Yusuf va Zulayho " dostonidagi Yusuf obrazi bo'lib, Yusuf jahondagi bor go'zallikning o'ndan to'qqizini o'zida mujassamlashtirgan inson. O'quvchi endi Gadoiy tasvirlagan mahbubani Yusuf bilan qiyoslab, uning Yusufdan go'zalligi haqidagi tasavvurga ega bo'ladi.

Quyidagi baytlarda tarixiy obraz Ibrohim Halilloh obrazini qo'llaydi .

Kimki ko'rguzsa Halillulohdek isboti qadam,

O't ichinda sunbulu rayhon dag'i gulzori bor[1.41]

* * *

Ka'bai maqsad jamolingdur, qoshing jon qiblası,

Englaring xoni Xalilluloh , dag'I xoling adas.[1.64b]

Xalilloh – Qur'onda nomi zikr etilgan payg'ambarlardan biri, o'zidan keyin o'tgan barcha payg'ambarlarning bobokaloni arablar va yahudiylarning umumiy ajdodi allohning chin do'sti(Xalilluloh)imom, siddiq va hanif deb ta'riflanadi. Yahudiy xiristian diniy adabiyotlarida Avrom nomi bilan ma'lum.

Chun tushti Gadoning elina xotami la'ling,

Bu mujiz ila oni Sulaymon desa bo'lur.[1.61 b]

Yuqoridagi baytda Gadoning yurtiga la'lingning muhri tushdi, bu mo'jiza bilan uni Sulaymon desa bo'lur demoqda.

Sen Sulaymoni zamonsen g'amza tasxiri bila.

Kim, musaxxar bo'ldi husnung davrida huru pari[1.140b]

Yuqoridagi baytda shoir Sulaymon obrazi orqali talmeh san'atini aks ettirgan. Birinchi misrada sen ishvang bilan rom qilishda zamona Sulaymonisan, husnung davrida huru-pari fath etildi demoqda.

Sayron qilon xiromlab ushul lolazor aro,

Saydi Xo'tan va yoxud Iramning g'izolidur[1.60b]

Asru ro'kashlar qilur mushkini ohuyi,

Sunbulungning aqdini yesh dog'i oqil nofini.[1. 138b]

Quyidagi misrada obi hayvon so'zi kelgan, obi hayvon-mifga ko'ra, uni ichgan kimsa tirik qolib, abadiy yashaydi deb hisoblanadigan hayot suvi. Bu suv qandaydir bir chashmadan chiqadi deb faraz etilganidanchashmayi hayvon hamda go'yo bu chashma suviga Xizr payg'ambar (a.s) muyassar bo'lgan deb qaralib, Xizr suyi deb ham yuritiladi. Misrada ham shunga ishora qilingan.

Bovujudi ul zulol erning agar Xizr istasa,

Obi hayvonin aningtek hech hayvon bo'lmag'ay [1.128b]

* * *

Xizrning sarchashmasi ,valloh, kerakmaskim manga,



Umri jovidondin ortuqtur visoling har dami[1. 131b]

Yuqoridagi misrada esa, menga Xizr suvi kerak emas, umrimning bor yo'g'idan ham sening visoling menga ortiqroqdur demoqda.

Xizri farrux paymi, dey baxti sharifimkim meni,

Chashmai nushi zuloling sori qildi ro' baroh.[1.124b]

Keyingi misrada esa, yorga dilrabo deya murojaat qilib, yor og'zining go'zalligini ta'riflar ekan, uni naqshi xotam ya'ni muhrning yozuvidek ko'rinadi deya keyingi misrada labini ta'riflab, lablaringda Isoyi Maryam ko'rinadi demoqda.

Dilbaro, og'zing ya'ni naqshi xotam ko'rnadur,

Lablaringda mujizi Isoyi Maryam ko'rnadur.[1.55b]

Tanosub

She'r baytlarida ma' no jihatdan bir- biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so'zlarni qo'llab, ular vositasida obrazli ifodalar, lavhalar yaratish san'ati tanosub deb ataladi.[2.80]

Quyidagi misralarda tanosub san'atidan mohirona foydalanganligining guvohi bo'lamiz: yorni oltinga mengzab, la'l, inju-yu javohirlar bilan bezanishing shart emas. Oltin ustida oddiy toshning turishi uni qiynaydi demoqda. Misralardagi la'l, inju, javohir, oltin, tosh so'zlari tanosub san'atini shakllantirgan.

La'l ila inju, javohirni hamoyil qilmag'il,

Ne kerak siym egniga bu toshning dardi sari.[1.143]

Shukrillahkim, yana bu tolei sargashtadin

Baxtu iqbol saodat barcha bo'ldi nekhoh.[1.124]

Bu anvoi latofat birla shaklu shevai mavzun

Malaksan, yo pari, yo hur yo inson sifatlu moh.[1.116]

Yuqoridagi baytda ham shoir Gadoiy tanosub san'atining betakror namunasini yaratgan. Birinchi misrada bu turli noziklik bilan nozing qaddi qomatga yarasha bichilgan deya keyingi misrada malakmisan, yoki pari, yo hur, yo inson sifatli oy deya tanosub san'atidan unumli foydalangan.

Necha tund bo'lsa oting, manga novak ug'a etting,

Sadaqang menu zakoting ne qusur o'lur ne nuqson.[1.114]

Quyidagi misrada Gadoiy tanosub san'atidan mohirona foydalanganligining guvohi bo'lamiz. Ya'ni baytda shoir yorning boshdan oyoq go'zalligini aynan tanosub san'ati orqali ochib beradi. Ilk misrada shoir yorga qarata bu qanday qaddur, bu qanday qomatdur va qomatga yarasha ishvdur deya ilk misraning o'zidayoq tanosub san'atini shakllantirgan. Keyingi misrada esa, bu qanday ko'zdur, bu qanday qoshdur, bu qanday yuzdur, bu qanday manglay deya yorning husnu go'zalligini ochib bergan.

Bu ne qaddur, bu ne qomat, bu ne mavzun shevalar,

Bu ne ko'zdur, bu ne qoshdur, bu ne yuz, bu ne jabin.[1.113]

Gadoiyning ijod mahsullari badiiy san'atlarning serjiloligi bilan ham har qanday o'quvchining ko'nglidanjoy olishi tabiiy. Shoir so'z qo'llash mahorati o'zining ichki kechinmalarini oshkor etadi. Gadoiy ijodining asosi ilmi badega asoslangan mujmuadir.



References:

1. Ahmadho'jayev E. "Gadoiy devon" Toshkent- 1973.
2. Hojiahmedov A "She'riy san'atlar va mumtoz qofiya "Toshkent -1998
3. Navoiy asarlari lug'ati Toshkent - 1972